

Adabiyot talimida bayon va insholarning o'rnini

Hilola Raimovna Mirzarahimova

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligining 2-sonli Toshkent akademik
litsey ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi

ABSTRACT

"Adabiyot talimida bayon va insholarning o'rnini" mavzusidagi mazkur maqola bayon va insholarning o'rnini umumiy o'rta ta'limda ham, o'rta-mahsus ta'limda ham o'quvchilarning adabiyot darslaridagi asosiy ish turlaridan biri hisoblanadi. Yozma ishlar esa inson tafakkurini charxlash, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlarini, qarashlarini qat'iy lashtirish, ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirish omili hisoblanadi.

Mavzuni yoritishda foydalanilgan vizual materiallar, adabiyotlar ham tadbiiq etiladi. Akademik litsey o'quvchilariga adabiyot talimida bayon va insholarning o'rnini o'rgatish jarayonida qo'llanadigan usullar amaliy tahlil qilinadi. Maqola maqsadli amalga oshirilgan.

ARTICLE INFO

Received: 26th December
2021

Revised: 26th January 2022

Accepted: 28th February 2022

KEYWORDS

ta'lim tizimi, badiiy so'z,
ijodkorlik, tafakkur,
mavzu, usnixat va imlo,
uslub, badiiy asar.

Adabiyot ta'limining jamiyat a'zolari, yoshlar tarbiyasidagi o'rnini va ahamiyati. O'quvchilarning ijtimoiy – estetik ongini, ularning dunyoqarashini shakllantirishda, o'quvchilarning vatanparvarlik, axloqiy – ma'naviy, badiiy – estetik tarbiyasida, yuksak insoniy fazilatlarini egallashlarida adabiyot beqiyos o'rin tutadi. Adabiyot fani o'quvchilarning boshqa fanlarni puxta o'zlashtirishlariga ham katta imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyot fani o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirishning eng qulay, ta'sirchan va samarali vositalaridan biridir. Aslida badiiy asarni o'qish va uni tahlil qilish jarayoni bevosita nutqiy jarayonlar olamida yashashning o'zidir.

Bayon va insholarning o'rnini umumiy o'rta ta'limda ham, o'rta-mahsus ta'limda ham o'quvchilarning adabiyot darslaridagi asosiy ish turlaridan biri hisoblanadi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim tizimi oldiga mustaqil mulohaza yurita oladigan ma'naviy barkamol shaxslarni shakllantirish vazifasini qo'ygan. Bayon va insholar esa inson tafakkurini charxlash, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlarini, qarashlarini qat'iy lashtirish, ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirish omili hisoblanadi.

Ta'lim tizimida faqat adabiyotgina o'quvchini insoniyatga oshno etadi, uni odamlar dunyosiga olib kiradi, o'zidagi shu olamga mansublik jihatlarini ochishga ko'maklashadi. Bu o'z navbatida, unga o'zligini anglatadi.

O'quvchining fantaziyasi, xayolot olami kattalarnikidan boy va keng. Ta'limda tarbiyalanuvchining bunday imtiyozlaridan uning o'zi uchun unumli foydalanish lozim.

Adabiyot darslarida bayon va insho yozdirishdan maqsad o'quvchilarni ijodkor qilish emas. Muhimi, tarbiyalanuvchida badiiy so'zga moyillik tuyg'usining ayrim jihatlari, belgilari paydo bo'lsa, bo'lmaganda, darsda o'rganganlariga munosabat bildirishga odatlansa, unga insonlik, shaxslik kurtaklari paydo bo'ladi. O'quvchilarda ijodkorlikni o'stirish uchun ularni ijodga undovchi material, stimuly va erkinlik berish,

o'qishga yo'nalish berib turish zarur. O'quvchilar mustaqil ijodiy faoliyati bo'lmish bayon va insholarni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) o'quvchiga katta va xilma – xil mavzularni tanlash ixtiyorini berish. Bu mavzular o'quvchilar uchun maxsus tanlangan bo'lmay, o'quvchilarning o'zi uchun ham jiddiy va qiziqarli bo'lishi kerak;

b) o'quvchilarning insholarini tekshirayotganda daftarining ahvoriga, aytish joyiz bo'lsa, uslubi bo'yicha hech qachon tanbeh bermaslik kerak. Adabiyot darslarida maqsad ijodga yo'naltirish bo'lganda bu jihatlar ikkinchi planda qoladi;

v) ijod paytida hajm va mazmun masalasi, uning tili diqqat markazida turmaydi. O'quvchi bularga e'tibor qilsa, asosiy fikrini unutib qo'yishi mumkin. U yozuvchi emas. Til, uslub, husnixat va imlo masalasi, odatda ona tili darslarining zimmasiga yuklanadi.

Odatda, o'qituvchilar o'z ijodiy insholarda darslik mualliflari yoki o'qituvchining timsollar haqida fikrlariga tayanib qolishadi. Buning asosiy sabablari ularning yozma ishni qanday bajarishni bilmasligi, o'z fikrini ifodalashga o'rgatilmagani, timsollar haqida shaxsiy qarashlarining yo'qligi, asar mazmuni yoki matnning qaysi o'rni va jihati ta'sir etganini ajrata olmasliklaridir. O'quvchilarning yozma ishlarini tashkil etishdan oldin o'qituvchi ular badiiy asarni qanday o'qiganlari va qanchalik tushunganlarini aniqlab olishi zarur. Shunday maqsad bilan tashkil etilgan suhbatlar asnosida asar yuzasidan o'quvchilar anglamay qolgan jihatlar va buning sabablari aniqlanadi. Shundan kelib chiqib ma'lum darajada tushuntirish ishlari amalga oshiriladi. Ayni vaqtda o'quvchida mustaqil fikr, sog'lom ma'naviy shakllantirish yo'lida ham ishlanadi.

O'quvchilarga bayon va insholarning o'ylantiradigan, qiynaydigan yoki sevintiradigan tuyg'ularga hamohang mavzularda bo'lishi yoqadi. Masaalan, ma'lum shaxs haqida insho yoki bayon mavzulari: “O'rtog'imning tavsifi”, “Mening do'stim”, “Mening ilk muhabbatim”, “Mening akam”, “Men suyg'an suyuqli”; o'rganilgan asarlar yuzasidan: “Menga yoqqan sahifa”, “Hoshimjonga munosabatim”, “A.Oripov ijodidan olgan taassurotlarim”, “O'.Hoshimov ijodining qaysi tomonlarini qadirlayman va yaxshi ko'raman” va h.k. mavzular istisnosiz ijodiy tafakkurni, tom ma'noda mustaqil fikrlashni talab qiladi. O'quvchining erkin va mustaqil mulohazasiga asoslanadigan bunday yozma ishlarni o'quv yilining boshida, o'quv yilining o'rtalarida va oxrida olish o'quvchilarning mustaqil fikrlashni o'stirishga xizmat qiladi. Shu biln birga, o'qituvchiga ulardagi fikr mustaqilligining o'sishini nazorat qilish imkonini ham beradi.

Adabiyot darslarida o'qituvchi o'quvchilarni badiiy asarda nima aytilganigagina emas, balki qanday aytilganigagina emas, balki qanday aytilganiga ham alohida diqqat qaratishga yo'naltirib turishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarni badiiy asar qahramonlari timsollariga baho beradigan yoki ularni qiyoslaydigan insholarni yozishga tayyorlashga, avval, har bir qahramonning og'zaki individual tavsifini chizish ko'nikmasini shakllantirib olinadi, so'ng ularning qiyosiy xarakteristikasi bilan bog'liq og'zaki topshiriqlar beriladi.

Insho muallifi har bir ishda o'z fikrini ifodalashi, yoki o'zgalarning aytganlariga qo'shilish – qo'shilmaligi sabablarini izohlashi kerak bo'ladi. O'quvchi o'z fikrlarini ifodalashni, ularga ishlov berishni bilishi, o'qituvchi esa darslik yoki qo'llanmalardan ko'chirilgan qolipdagi ishni emas, aynan inshoni, ijod maxsulini olishi va tekshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Insholar tekshirilar, tahlil qilinar ekan, didlarni “ikki” yoki “yomon” baholar bilan so'ndirish emas, ular haqida tortishish, bahslashish kerak. Insho yozgan o'quvchining fikrlarini hurmat qilgan holda, yozma ishlardagi biror detalni e'tiborsiz qoldirish mumkin emas. Muvoffaqiyatli chiqqan fikr va xullosalarni ko'rsatish, rag'batlantirish, noto'g'ri ifodalar haqida jiddiy mulohazalar aytish, nohaqligiga o'quvchining o'zini ishontirish zarur. Insho va bayonlarning asosiy pedagoik qimmati ularning mustaqil mulohazalarga qanchalar boyligi, muallif qarashlarining qay darajada asoslanganligi bilan o'lchanadi.

Insho va bayonlarning muhokamasidan keyin yaxshi chiqmay qolgan o'rinlarini qayta ishlash, undan yangi ish yaratishni talab qilish mumkin emas. Ma'lum ishni bajarishni uddalay olgan bo'lsa-da, yo'l qo'ygan xatolari va uning sabablarini anglagan o'quvchi endilikda o'zini yozma ishini nisbatan yuqori darajaada bajara olishga qodir his qiladi.

Darslarda o'quvchilarning yozma ishlarini tahlil qilishdan asar tahliliga o'tish, asarda ko'zga yaqqol tashlanadigan, lekin o'quvchining nazaridan chetda qolgan yoki noto'g'ri talqin qilingan biror jihatni

belgilab, bu borada suhbatlashish mumkin bo'lgan darajada tashkil etiah kerak. O'quvchilar tomonidan bajarilgan ish tahlili bilan badiiy asar tahlili uyg'unlashib ketgani maqul. Shunda keyingi ishlar talab darajasida bajariladi.

O'quvchilarning insho va bayonlarida uchrab turadigan: fikr bayon etishda izchillik va aniqlikning yetishmasligi; umumlashmalar qilishni, xulosalar chiqarishni bilmaslik; mavzudan chetlab ketish; reja bandlarining me'yorini bilmaslik; mavzu uchun muhimini nomuhimdan ajrata olmaslik; ko'chirmalardan o'rni bilan foydalanishni uddalamaslik; insho mavzusi, rejasi va mazmunidai nomutanosiblik kabi kabi kamchiliklarni hamisha nazorat qilish va o'quvchilarning ishlarini bunday xatoliklardan tozalashga o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu kabi xatoliklardan o'quvchilarni qutqarish uchun o'quvchi ishlarining tahlili va xatolar ustida ishlash darslarida ularni aniq misollar bilan ko'rsatishi, xaolarning sabablarini aniqlash, reja tuzishda umumiy mavhum gaplardan qochishga o'rgatishi, tuzilgan rejaning bandlari va yozma ishning mukammal, batafsil tahlil qilib beishi kerak. Xatolar ustida bu tariqa ishlash yuqoridagi kamchiliklarning bartaraf etilishida katta ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni bayon va insho yozishga o'rgatish jarayoni shu tarzda tashkil etilsa, adabiy ta'lim oldiga qo'yilgan maqsad amalga oshishi birmuncha tezlashishi tayin.

Xullas, adabiyot darslarida, u ta'limning qaysi turida bo'lishidan qat'i nazar, o'quvchilarga bayon va insholar yozdirish, ularning barkamol va komil avlod bo'lib shakllanishiga ko'maklashadi

Adabiyotlar ro'yxati

1. Akademik litseylarning aniq fanlar yo'nalishidagi tarmoq ta'lim standarti va chuqur- lashtirilgan fanlar o'quv dasturlari... Ona tili va adabiyoti /Mualliflar: A.Nurmonov, N.Mahmudov, A. Sobirov, N.Qosimova, Sh. Yusupova. – T.: O'qituvchi, 2005.
2. Bobokalonov R, Ne'matova G. Ona tili o'qitishning yangi texnologiyasi haqida. - T.: 1998.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Akademik litseylarning 3-bosqich talabalari uchun darslik /A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. – T.: Xalq merosi, 2003.
4. Mahmudov N., va boshq. «Ona tili» 9-sinf. – T.: «Ma'naviyat», 2015.
5. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –
6. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich talabalari uchun darslik. – T.: Sharq, 2005.
7. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb- hunar kollejlari uchun o'quvdasturi. (Rafiyev A.R., G'ulomova N.)–T., 2010.
8. Qodirov M., va boshq. «Ona tili» 8-sinf. - T.: «Ma'naviyat», 2011.